OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

MASHRAPOVA SABINA TUROBJONOVNA

TA’LIM SIFATI MENEJMENTINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

UO‘K: 373.2:37.014.6:005

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in pedagogical sciences

Mashrapova Sabina Turobjonovna
Ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirish …….…….……...…….……...…..... 3

Машрапова Сабина Туробджоновна
Совершенствование педагогических условий эффективной организации менеджмента качества образования..... 25

Mashrapova Sabina Turobjonovna
Improving the Pedagogical Conditions for Effective Organization of Education Quality Management ……..……..……..... 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works ….....……..... 56

OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

MASHRAPOVA SABINA TUROBJONOVNA

TA’LIM SIFATI MENEJMENTINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.07 – Ta’limda menejment

PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.3.PhD/Ped13688 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligi huzuridagi Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) hamda ZiyoNet axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Omanova Gulnoza Abdunazarovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Saliyeva Zuhra Tahirovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Matnazarova Mehribon Bahtiyorovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil «30» noyabr kuni soat 14^{00} da Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengash yig‘ilishida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 203-01-28; Faks: (+99871) 202-01-20; E-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51 - raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 203-01-28.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «16» noyabr kuni tarqatildi.

(2026-yil "16" 11 dagi 24 raqamli reyestr bayonnomasi).

U.Sh. Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

A.S. Djuraev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Y.O‘. Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv jarayonlari, innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda inson kapitaliga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi ta’lim tizimida sifatni samarali boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida bola shaxsining intellektual, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-emotsional va kommunikativ rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Dunyoda UNESCO[1], UNICEF[2] va OECD[3] kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari va tahliliy hujjatlarida maktabgacha ta’lim va bolalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish sifati bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, inson kapitalini shakllantirish hamda jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etish pedagogik monitoring, refleksiv boshqaruv, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish va pedagogik muhitni samarali tashkil etish bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va Kanada kabi rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlash va takomillashtirish tizimlarida strategik boshqaruv, sifat monitoringi, ma’lumotlarga asoslangan baholash, pedagogik amaliyotlarni takomillashtirish hamda uzluksiz sifatni rivojlantirish mexanizmlaridan foydalaniladi[4].

Mamlakatimizda ham ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish hamda boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarorida maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta’limdan teng foydalanishini ta’minlash, boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

---

[1] UNESCO Early childhood care and education: Landscape review 2010–2022, 2024. https://www.unesco.org/en/articles/early-childhood-care-and-education-landscape-review-2010-2022

[2] UNICEF. Build to Last: A Framework in Support of Universal Quality Pre-primary Education. – UNICEF, 2020. https://www.unicef.org/reports/build-to-last-2020

[3] OECD. Quality Assurance and Improvement in the Early Education and Care Sector. – OECD Publishing, 2022. DOI: 10.1787/774688bf-en. https://www.oecd.org/en/publications/quality-assurance-and-improvement-in-the-early-education-and-care-sector_774688bf-en.

[4] OECD.Data and monitoring in early childhood education and care in the digital age. https://www.oecd.org/en/publications/empowering-young-children-in-the-digital-age_50967622-en/full-report/component-13.html

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ–595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi va 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2024-yil 30-sentabrdagi PF–152-son “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 19-martdagi PF–51-son “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi va 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-son “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari U.Begimkulov, Sh.Mirziyoyeva, G.Omanova, R.Djurayev, S.Turg‘unov, E.Seytxalilov, O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva, N.Muslimov, N.Azizxo‘jayeva va boshqalar tomonidan ta’lim menejmenti, pedagogik menejment, ta’lim sifatini boshqarish, pedagogik monitoring hamda maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda ta’lim muassasalarini samarali boshqarish, pedagogik jarayonlarni tashkil etish, ta’lim sifatini monitoring qilish, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda pedagogik muhit samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Xususan, Sh.Sh. Mirziyoyeva tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining innovatsion kompetentligini rivojlantirishning nazariy va tashkiliy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan. G.A.Omanovaning ilmiy ishlarida esa maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga oid masalalar yoritilgan.

MDH olimlaridan V.S.Lazarev, A.M.Moiseev, M.M. Potashnik, P.I.Tretyakov, E.A.Yamburg, V.I.Zvereva, L.I.Fishman va boshqalar tomonidan ta’lim menejmenti, ta’lim sifatini boshqarish, pedagogik monitoring hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda ta’lim sifatini boshqarish tizimini tashkil etish, pedagogik jarayonlarni monitoring qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ta’lim sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish masalalari yoritilgan. Xususan, M.M.Potashnik va P.I.Tretyakov tomonidan

ta’lim muassasalarini rivojlantirishni boshqarish mexanizmlari, T.I.Shamova tomonidan pedagogik tizimlarni boshqarish asoslari, N.V.Nemova va V.I.Zvereva tomonidan esa ta’lim sifatini monitoring qilish hamda pedagogik diagnostika masalalari tadqiq etilgan.

Xorijiy olimlar M.Montessori, L.Malaguzzi, F.Froebel, J.Dewey, J.Piaget, H.Gardner, E.Sallis, W.Deming va J.Juran tomonidan maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati menejmenti, pedagogik muhitni tashkil etish, innovatsion boshqaruv texnologiyalari hamda pedagogik monitoring masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda maktabgacha ta’lim muassasalarida sifatli ta’lim muhitini yaratish, bolaga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish, pedagogik jarayonlarni samarali boshqarish hamda ta’lim sifatini baholash masalalari yoritilgan. Xususan, M.Montessori tomonidan bola markazli ta’lim yondashuvi, L.Malaguzzi tomonidan Reggio Emilia pedagogik muhiti, F.Froebel tomonidan “kindergarten” tizimi asoslab berilgan. J.Dewey va J.Piaget bolaning faoliyat asosida rivojlanishi masalalarini tadqiq etgan bo‘lsa, E.Sallis, W.Deming va J.Juran tomonidan sifat menejmenti va ta’lim sifatini uzluksiz takomillashtirish tamoyillari ishlab chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini boshqarish, pedagogik monitoring va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish masalalari turli jihatdan o‘rganilganini ko‘rsatdi. Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rahbar, pedagog va ota-onalar hamkorligini yagona raqamli tizim asosida tashkil etish, bolalarning individual rivojlanishini kuzatish hamda monitoring natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanishning pedagogik sharoitlari yetarlicha o‘rganilmagan bo‘lib, bu borada alohida ilmiy izlanish olib borish zarurati mavjud.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta’lim tizimi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining IL 4821191576 “Masofaviy texnologiyalar asosida malaka oshirish tizimida o‘quv faoliyatini tashkil qilish” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirish hamda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish va integrativ ekotizimini aniqlashtirish;

ta’lim sifati menejmentining raqamli indikatorlarini tizimlashtirish hamda raqamli-metodik mexanizmini takomillashtirish;

ta’lim sifatini samarali boshqarishning integrativ pedagogik modelini ishlab chiqish va uning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash;

integrativ pedagogik model va mexanizmlarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali aniqlash hamda statistik jihatdan baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etish jarayoni olinib, tajriba-sinov ishlariga Toshkent

shahri, Navoiy va Buxoro hududlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan jami 310 nafar respondent, jumladan, 10 nafar MTT rahbari, 100 nafar pedagog va 200 nafar ota-ona jalb etilgan. Shuningdek, bolalar rivojlanishining individual dinamikasini kuzatish jarayonida 117 nafar tarbiyalanuvchining rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Diagnostik bosqichda esa 300 nafar respondent, jumladan, 60 nafar rahbar, 120 nafar pedagog va 120 nafar ota-ona ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirishning shakl, metod, vosita va tashkiliy-pedagogik mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ilmiy-pedagogik va me’yoriy-huquqiy manbalarni o‘rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa-so‘rovnoma, suhbat, pedagogik tashxis, modellashtirish, ekspert baholash, monitoring, pedagogik tajriba-sinov, olingan natijalarni umumlashtirish va qiyoslash hamda matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tajriba-sinov natijalarining statistik ahamiyatini aniqlashda Pirsonning χ^2 mezoni qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlari kompetensiyaviy, tizimli-integrativ, refleksiv hamda monitoringli yondashuvlar metodologiyasi asosida integrativ pedagogik ekotizimning pedagogik monitoring, innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodik ta’minot, motivatsion boshqaruv va hamkorlik muhiti komponentlari o‘rtasidagi funksional-dinamik aloqadorlikni ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning integrativ pedagogik modeli strategik rejalashtirish, tashkiliy muvofiqlashtirish, pedagogik faoliyat, monitoring va refleksiv tahlil jarayonlarining uzviyligini ta’minlash, milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentini bolalarning yosh va individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish hamda diagnostik natijalar asosida pedagogik va boshqaruv faoliyatini korreksiyalash orqali takomillashtirilgan;

ta’lim sifati menejmentining raqamli-metodik ta’minoti boshqaruv va pedagogik faoliyat, bola rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik hamda raqamli muhitga oid indikatorlarni tizimlashtirish, yaxlit raqamli boshqaruv axborot tizimi va Individual rivojlanish kartasi vositasida monitoring natijalarini individual pedagogik ehtiyojlar bilan bog‘lash hamda ulardan pedagogik faoliyatni rejalashtirishda foydalanish asosida rivojlantirilgan;

raqamlashtirilgan muhitda ta’lim sifati menejmenti samaradorligi boshqaruv va pedagogik faoliyat, ota-onalar bilan hamkorlik hamda bolalar rivojlanishining individual dinamikasiga oid diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarni bazaviy, o‘rta va yuqori darajalar bo‘yicha differensial baholash, tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy natijalarini qiyoslash va aniqlangan o‘zgarishlarning statistik ahamiyatliligini tekshirish asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentining samaradorligini baholashga mo‘ljallangan mezonlar, raqamli indikatorlar va diagnostik monitoring vositalari ishlab chiqilgan;

rahbar, pedagog va ota-onalar o‘rtasida axborot almashinuvini tashkil etish, bolalar rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda monitoring natijalaridan boshqaruv faoliyatida foydalanish imkonini beruvchi yaxlit raqamli boshqaruv axborot tizimi ishlab chiqilgan;

bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini aniqlash va pedagogik faoliyatni individuallashtirishga xizmat qiluvchi Individual rivojlanish kartasi hamda milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontenti ishlab chiqilgan;

ta’lim sifati menejmentining integrativ pedagogik modelini amaliyotga tatbiq etish, monitoring natijalari asosida pedagogik va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan nazariy-metodologik yondashuvlarning ilmiy-pedagogik va me’yoriy-huquqiy manbalarga asoslanganligi, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos usullardan foydalanilganligi, tajriba-sinov ishlarining belgilangan mezon va ko‘rsatkichlar asosida tashkil etilganligi, olingan natijalarning qiyosiy va matematik-statistik tahlil qilinganligi hamda Pirsonning χ^2 mezoni orqali statistik ahamiyatliligi aniqlanganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tajriba-sinov jarayonida amaliy jihatdan sinovdan o‘tkazilgan, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan hamda tegishli tashkilotlarning ma’lumotnomalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining **ilmiy ahamiyati** maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari nazariy jihatdan asoslanganligi, ta’lim sifati menejmentining integrativ ekotizimi aniqlashtirilganligi, raqamli indikatorlar tizimi hamda pedagogik va boshqaruv faoliyatining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi integrativ pedagogik model takomillashtirilganligi, shuningdek, ta’lim sifati menejmenti samaradorligini baholashning diagnostik mezon va ko‘rsatkichlari asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining **amaliy ahamiyati** ishlab chiqilgan raqamli indikatorlar va monitoring vositalari, yaxlit raqamli boshqaruv axborot tizimi, Individual rivojlanish kartasi hamda milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik va boshqaruv faoliyatini tashkil etish, bolalarning individual rivojlanishini kuzatish, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, rahbar va pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish hamda ta’lim sifati monitoringini takomillashtirish jarayonlarida foydalanish imkoniyati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini takomillashtirishga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik sharoitlarini kompetensiyaviy, tizimli-integrativ, refleksiv hamda monitoringli yondashuvlar metodologiyasi asosida integrativ pedagogik ekotizimning pedagogik monitoring, innovatsion pedagogik texnologiyalar, metodik ta’minot, motivatsion boshqaruv va hamkorlik muhiti komponentlari o‘rtasidagi funksional-dinamik aloqadorlikni ta’minlash orqali takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalardan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida foydalanilgan (Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2026-yil 14-oktabrdagi 06/32/10060-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini tizimli tashkil etish hamda pedagogik va boshqaruv jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash imkoniyati kengaygan;

maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning integrativ pedagogik modelini strategik rejalashtirish, tashkiliy muvofiqlashtirish, pedagogik faoliyat, monitoring va refleksiv tahlil jarayonlarining uzviyligini ta’minlash, milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentini bolalarning yosh va individual rivojlanish xususiyatlariga moslashtirish hamda diagnostik natijalar asosida pedagogik va boshqaruv faoliyatini korreksiyalash orqali takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalardan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida foydalanilgan (Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2026-yil 14-oktabrdagi 06/32/10060-son ma’lumotnomasi). Natijada ta’lim sifati monitoringi ma’lumotlarini tizimli shakllantirish, bola rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda monitoring natijalaridan pedagogik va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyati yaratilgan;

ta’lim sifati menejmentining raqamli-metodik ta’minotini boshqaruv va pedagogik faoliyat, bola rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik hamda raqamli muhitga oid indikatorlarni tizimlashtirish, yaxlit raqamli boshqaruv axborot tizimi va Individual rivojlanish kartasi vositasida monitoring natijalarini individual pedagogik ehtiyojlar bilan bog‘lash hamda ulardan pedagogik faoliyatni rejalashtirishda foydalanish asosida rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalardan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida foydalanilgan (Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2026-yil 14-oktabrdagi 06/32/10060-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida monitoring natijalarini pedagogik faoliyat bilan bog‘lash, aniqlangan ehtiyojlarga muvofiq metodik yordamni tashkil etish va ta’lim sifatini izchil yaxshilab borish imkoniyati oshgan;

raqamlashtirilgan muhitda ta’lim sifati menejmenti samaradorligini boshqaruv va pedagogik faoliyat, ota-onalar bilan hamkorlik hamda bolalar rivojlanishining individual dinamikasiga oid diagnostik mezon va ko‘rsatkichlarni bazaviy, o‘rta va yuqori darajalar bo‘yicha differensial baholash, tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich hamda yakuniy natijalarini qiyoslash va aniqlangan o‘zgarishlarning statistik ahamiyatliligini tekshirish asosida aniqlashtirishga oid taklif va tavsiyalardan ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida foydalanilgan (Ijtimoiy himoya

milliy agentligining 2026-yil 14-oktabrdagi 06/32/10060-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘yinlarni bolalarning yoshi va individual rivojlanish ehtiyojlariga mos tanlash, pedagogik jarayonda maqsadli qo‘llash hamda bolaning rivojlanish dinamikasiga ko‘ra keyingi pedagogik faoliyatni belgilash imkoniyati kengaygan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya ishi mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy matni 147 betni tashkil etadi, unda 8 ta jadval va 16 ta rasm keltirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 105 nomdagi manbani o‘z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, qo‘llanilgan tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Shuningdek, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ta’lim sifati menejmentining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy va me’yoriy-huquqiy asoslari, maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning milliy va xorijiy tajribasi hamda ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Ta’lim sifati menejmenti pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish, natijalarni baholash va ular asosida boshqaruv faoliyatini takomillashtirishga yo‘naltirilgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilingan. Bobda ta’lim sifati menejmentining ilmiy-nazariy asoslarini yoritishda sifatni boshqarishga oid tizimli, jarayonli, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari o‘rganilgan. Xususan, W. Edwards Demingning sifatni uzluksiz takomillashtirishga oid qarashlari, ISO 21001 xalqaro standartida belgilangan ta’lim tashkilotlarini boshqarish tamoyillari, shuningdek UNESCO, UNICEF va OECD tashkilotlarining maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlashga doir konseptual yondashuvlari tahlil etilgan. Mazkur yondashuvlarni umumlashtirish asosida maktabgacha ta’lim

tashkilotlarida sifat menejmentining samaradorligi pedagogik jarayon, boshqaruv faoliyati, monitoring va manfaatdor tomonlar hamkorligining o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligi asoslangan. Tadqiqotimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmenti faqat pedagogik faoliyat natijalarini nazorat qilish bilan cheklanmasligi, balki bolaning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, pedagoglarning kasbiy faoliyatini metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ota-onalar bilan hamkorlikni rivojlantirish hamda monitoring natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanishni ham qamrab olishi ko‘rsatib berilgan. Shu asosda ta’lim sifati menejmentining pedagogik, tashkiliy, diagnostik va boshqaruv jihatlari o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida talqin etilgan.

Maktabgacha ta’lim sifatini boshqarishning me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi hamda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunlar, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Ushbu hujjatlarda belgilangan talablar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifatini ta’minlash, pedagogik faoliyatni takomillashtirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishning huquqiy asosi sifatida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, UNESCOning 2022-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan erta bolalik davridagi ta’lim va tarbiya bo‘yicha Butunjahon konferensiyasi yakunida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi, ISO 21001 xalqaro standarti hamda UNESCO va UNICEF tomonidan ilgari surilgan sifatli maktabgacha ta’limga oid yondashuvlar o‘rganilgan. Mazkur hujjatlarning tahlili maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlashda bolaga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuv, manfaatdor tomonlar hamkorligi, monitoring va boshqaruv jarayonlarini uzluksiz takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan. Ushbu bobda maktabgacha ta’lim sifati menejmentini tashkil etishning milliy va xorijiy tajribasi ham qiyosiy o‘rganilgan. Jumladan, Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va Kanada tajribalarida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonini muntazam monitoring qilish, ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash, refleksiv boshqaruv va raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Qiyosiy tahlil natijasida ushbu yondashuvlarning maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini takomillashtirishdagi pedagogik imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqotimizda ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib, tizimlashtirildi. Bunda rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, metodik ta’minot, pedagogik monitoring, ota-onalar bilan hamkorlik va raqamli texnologiyalardan foydalanishga e’tibor qaratildi. Ushbu shart-sharoitlar asosida ta’lim sifati menejmentining integrativ pedagogik ekotizimi nazariy jihatdan asoslandi (1-rasm). Unda monitoring natijalaridan pedagogik faoliyatni yaxshilash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish nazarda tutilgan.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentining integrativ pedagogik ekotizimi

Shunday qilib, birinchi bobda amalga oshirilgan ilmiy-nazariy, me'yoriy-huquqiy va qiyosiy tahlillar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish, integrativ pedagogik ekotizimning tarkibiy qismlarini belgilash hamda tadqiqotning keyingi bosqichlarida ta'lim sifati menejmentining integrativ pedagogik modeli va raqamli-metodik mexanizmlarini takomillashtirish uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

Dissertatsiyaning **"Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentining integrativ pedagogik mexanizmlari"** deb nomlangan ikkinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentining amaldagi holati, mavjud pedagogik muammolar, ta'lim sifatini boshqarishning integrativ pedagogik modeli, bola rivojlanishini individual qo'llab-quvvatlashning raqamli-metodik mexanizmi hamda milliy harakatli va intellektual o'yinlarning raqamli kontentidan foydalanish metodikasi yoritilgan. Bobda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati menejmentining amaldagi holatini aniqlash maqsadida rahbarlar, pedagoglar va ota-onalar faoliyati bilan bog'liq diagnostik materiallar tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida boshqaruv faoliyati, pedagogik faoliyat, bola rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik va raqamli muhit yo'nalishlari bo'yicha ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. Olingan natijalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik kuzatuv, monitoring va boshqaruv faoliyatining muayyan shakllari mavjud bo'lsa-da, ular asosida shakllanadigan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqligi va pedagogik qarorlarni qabul qilishda foydalanish mexanizmlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligini ko'rsatgan. Diagnostik tahlil asosida ta'lim sifati menejmentining raqamli indikatorlari boshqaruv faoliyati, pedagogik faoliyat,

bola rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik hamda raqamli muhit yo‘nalishlari bo‘yicha tizimlashtirilgan. Ushbu indikatorlar ta’lim sifati bilan bog‘liq jarayonlarni muntazam kuzatish, aniqlangan muammolarni pedagogik jihatdan tahlil qilish hamda monitoring natijalaridan boshqaruv faoliyatida foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Maktabgacha ta’lim sifati menejmentining raqamli indikatorlari

Baholash yo‘nalishi	**Raqamli indikatorlar**	**Ma’lumot manbai**	**Monitoringdagi ahamiyati**
Boshqaruv faoliyati	rejalashtirilgan ishlarning bajarilishi; aniqlangan muammolar bo‘yicha ko‘rilgan choralar; metodik yordamning amalga oshirilishi	rahbar faoliyatiga oid qaydlar, ichki monitoring ma’lumotlari	boshqaruvdagi holat va o‘zgarishlarni aniqlash
Pedagogik faoliyat	mashg‘ulotlarning tashkil etilishi; metod va vositalardan foydalanish; individual yondashuv; pedagogik kuzatuv va korreksiya	pedagog faoliyatiga oid qaydlar va kuzatuv natijalari	pedagogik faoliyat holati va metodik ehtiyojlarni aniqlash
Bola rivojlanishi	jismoniy; ijtimoiy-emotsional; nutqiy; bilish va ijodiy rivojlanishdagi o‘zgarishlar	pedagogik kuzatuv va diagnostika natijalari	individual rivojlanish dinamikasini kuzatish
Ota-onalar bilan hamkorlik	qayta aloqa; pedagogik tavsiyalar bilan ishlash; bola rivojlanishi bo‘yicha ma’lumot almashish	pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi hamkorlikka oid ma’lumotlar	oila bilan pedagogik hamkorlik holatini aniqlash
Raqamli muhit	ma’lumotlarning o‘z vaqtida kiritilishi; qaydlarning to‘liqligi; raqamli resurslardan maqsadli foydalanish	raqamli muhitda shakllangan qaydlar	monitoring ma’lumotlarining muntazamligi va to‘liqligini ta’minlash

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik modelning tarkibiy tuzilishi, funksional mexanizmlari hamda amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslangan. Modelda ta’lim sifati menejmentining nazariy-metodologik asoslari, pedagogik faoliyatni tashkil etish, monitoring va diagnostika, individual pedagogik qo‘llab-quvvatlash hamda natijalarni baholash jarayonlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ifodalangan (2- rasm).



2-rasm. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentining integrativ pedagogik modeli

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentining integrativ pedagogik modeli maqsadli-metodologik, pedagogik shart-sharoitlar, integrativ-faoliyatli, refleksiv-korreksion hamda natijaviy-baholash bloklaridan tashkil topgan. Mazkur bloklarning funksional aloqadorligi boshqaruv va pedagogik faoliyatni yagona maqsad asosida muvofiqlashtirish, ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, monitoring natijalaridan amaliy faoliyatda foydalanish hamda pedagogik jarayonni izchil takomillashtirishga yo‘naltirilgan.

Maqsadli-metodologik blokda ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning maqsadi, metodologik yondashuvlari va pedagogik tamoyillari belgilangan. Ushbu blok boshqaruv faoliyatini bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlari, pedagogik jarayonning sifat ko‘rsatkichlari va maktabgacha ta’lim tashkilotining rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘unlashtirishni nazarda tutadi. Bunda ta’lim sifatini ta’minlash pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish, baholash va takomillashtirish bilan uzviy bog‘liq faoliyat sifatida qaraladi.

Pedagogik shart-sharoitlar bloki rahbar va pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, monitoring va diagnostika tizimini takomillashtirish, hamkorlik muhitini shakllantirish, metodik ta’minotni rivojlantirish hamda motivatsion boshqaruvni tashkil etish kabi oltita o‘zaro bog‘liq yo‘nalishni qamrab oladi. Ushbu shart-sharoitlar pedagoglarning kasbiy-metodik ehtiyojlarini aniqlash, ularga maqsadli yordam ko‘rsatish, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish va ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Integrativ-faoliyatli blokda rahbar, pedagog va ota-onalarning hamkorligi bolalarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bilan bog‘langan. Boshqaruv faoliyati, pedagogik faoliyat, bola rivojlanishi, ota-onalar bilan hamkorlik va raqamli muhitga oid indikatorlar monitoringning diagnostik-axborot asosini tashkil etadi. Raqamli-metodik platforma mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha ma’lumotlarni tizimlashtirishga, Individual rivojlanish kartasi esa bolaning rivojlanish dinamikasini kuzatish va pedagogik ehtiyojlarini aniqlashga xizmat qiladi. Olingan ma’lumotlarni pedagogik kuzatuv natijalari bilan qiyoslash asosida bolaning individual xususiyatlariga mos metod, topshiriq va rivojlantiruvchi faoliyat turlarini tanlash imkoniyatlari belgilanadi.

Individual pedagogik qo‘llab-quvvatlashning raqamli-metodik mexanizmi bolaning individual rivojlanishini muntazam kuzatish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va uning ehtiyojlariga mos pedagogik yordamni tashkil etishga qaratilgan. Ushbu mexanizmda kuzatuv ma’lumotlarini yig‘ish, rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, individual ehtiyojlarni aniqlash, pedagogik yordamni rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni qayta kuzatish hamda refleksiv korreksiya izchil amalga oshiriladi. Olingan natijalar pedagogik faoliyatni takomillashtirish, metodik yordam mazmunini aniqlashtirish va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Natijaviy-baholash blokida ta’lim sifati menejmentining samaradorligi boshqaruv va pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlar, bolalarning individual rivojlanish dinamikasi, ota-onalar bilan hamkorlik holati, metodik qo‘llab-quvvatlash natijalari

hamda raqamli monitoring ma’lumotlaridan foydalanish ko‘rsatkichlari asosida aniqlanadi. Baholashda ko‘rsatkichlarning miqdoriy o‘zgarishlari bilan bir qatorda, ularning pedagogik mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonidagi amaliy ahamiyati ham hisobga olinadi.

Ushbu integrativ pedagogik modelning o‘ziga xos jihati monitoring natijalari, pedagogik faoliyat va boshqaruv qarorlari o‘rtasida uzluksiz qayta aloqani ta’minlashdan iborat. Diagnostika orqali aniqlangan ehtiyojlar pedagogik faoliyatni rejalashtirishga, amalga oshirilgan faoliyat natijalari esa keyingi metodik va boshqaruv qarorlarini belgilashga asos bo‘ladi. Bunda raqamli monitoring ma’lumotlari pedagogik kuzatuv va kasbiy tahlil bilan uyg‘un holda qo‘llanilib, ta’lim sifati menejmentining tarkibiy jarayonlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik ta’minlanadi.

Dissertatsiyamizning ushbu bobida bola rivojlanishini individual pedagogik qo‘llab-quvvatlashning raqamli-metodik mexanizmi ham ishlab chiqilgan. Mazkur mexanizm pedagogik kuzatuv natijalarini yig‘ish va tizimlashtirish, bolaning individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash, ularga mos pedagogik faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish hamda erishilgan natijalarni qayta monitoring qilish bosqichlarini qamrab oladi. Mexanizmning amaliy qo‘llanilishida raqamli-metodik platforma rahbar, pedagog va ota-onalar o‘rtasida axborot almashinuvini tashkil etish, bola rivojlanishiga oid ma’lumotlarni umumlashtirish, Individual rivojlanish kartasidagi o‘zgarishlarni kuzatish hamda monitoring natijalarini pedagogik va boshqaruv faoliyati bilan bog‘lashga xizmat qiluvchi axborot-metodik vosita sifatida asoslangan.

Shuningdek, bolalarning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatish va individual pedagogik yordamni rejalashtirishga mo‘ljallangan Individual rivojlanish kartasi metodikasi yoritilgan. Ushbu metodika bolaning rivojlanish ko‘rsatkichlarini qayd etish, avvalgi va keyingi natijalarni qiyoslash, individual ehtiyojlarini aniqlash hamda amalga oshirilgan pedagogik faoliyat natijalarini baholash imkonini beradi. Bunda raqamli ko‘rsatkichlar pedagogik kuzatuv va bolaning individual xususiyatlari bilan bog‘liq holda talqin etilishi asosiy metodik talab sifatida belgilangan. Yana ushbu bobimizda milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentidan ta’lim sifatini ta’minlashda foydalanish metodikasi ham asoslangan. Ushbu metodikada bolalarning yosh va individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘yinlarni tanlash, ularni pedagogik jarayonga maqsadli integratsiyalash, o‘yin faoliyati davomida bolaning ishtiroki va rivojlanishidagi o‘zgarishlarni kuzatish hamda olingan natijalar asosida keyingi pedagogik faoliyatni moslashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontenti bolaning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi metodik resurs sifatida qaralgan. Platformaning raqamli muhiti esa ushbu kontentni tizimlashtirish, bolalarning rivojlanish ehtiyojlariga mos tanlash va pedagogik faoliyatda maqsadli qo‘llashni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida belgilangan.

Shunday qilib, ikkinchi bobda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentining amaldagi holatini diagnostika qilish natijalari asosida raqamli indikatorlar tizimlashtirilgan, integrativ pedagogik model takomillashtirilgan, bola

rivojlanishini individual pedagogik qo‘llab-quvvatlashning raqamli-metodik mexanizmi hamda milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentidan foydalanish metodikasi asoslangan. Mazkur ilmiy-metodik yechimlar tadqiqotning uchinchi bobida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuniy va metodik asosini tashkil etgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamlashtirilgan muhitda ta’lim sifati menejmenti samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati menejmentini samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, integrativ pedagogik model va raqamli-metodik mexanizmlarning amaliy samaradorligini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni, tashkil etish bosqichlari, baholash mezonlari hamda olingan natijalarning qiyosiy va matematik-statistik tahlili yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri, Navoiy va Buxoro viloyatlaridagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari bazasida tashkil etilgan. Tadqiqotga jami 310 nafar respondent, jumladan, 10 nafar maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, 100 nafar pedagog va 200 nafar ota-ona jalb etilgan. Tajriba va nazorat guruhlariga 155 nafardan respondent taqsimlanib, har bir guruhda 5 nafar rahbar, 50 nafar pedagog va 100 nafar ota-onaning ishtiroki ta’minlangan. Shuningdek, bolalarning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash maqsadida 117 nafar tarbiyalanuvchining rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganilgan. Tajriba guruhini Toshkent shahridagi 324-, 422-, 559-sonli, Navoiy viloyatidagi 10-sonli hamda Buxoro viloyatidagi 5-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etgan. Nazorat guruhi sifatida Toshkent shahridagi 303-, 348-, 9-sonli, Navoiy viloyatidagi 8-sonli va Buxoro viloyatidagi 17-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotlari belgilangan. Tajriba maydonlarini tanlashda tashkilotlarning faoliyat sharoiti, pedagogik jamoa tarkibi, raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari va tadqiqot doirasida asoslangan pedagogik yechimlarni amaliyotda sinovdan o‘tkazish sharoitlari hisobga olingan. Tajriba-sinov ishlari aniqlovchi-tashxis, shakllantiruvchi va yakuniy-baholash bosqichlarida amalga oshirilgan. Aniqlovchi-tashxis bosqichida ta’lim sifati menejmentining dastlabki holati o‘rganilib, rahbarlar, pedagoglar va ota-onalar faoliyatiga oid diagnostik ma’lumotlar umumlashtirilgan hamda tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich ko‘rsatkichlari qiyoslangan. Shakllantiruvchi bosqichda integrativ pedagogik model, raqamli-metodik platforma, Individual rivojlanish kartasi hamda milliy harakatli va intellektual o‘yinlarning raqamli kontentidan foydalanish mexanizmlari tajriba guruhi faoliyatiga tatbiq etilgan. Yakuniy-baholash bosqichida pedagogik va boshqaruv faoliyatida, ota-onalar bilan hamkorlikda hamda bolalarning individual rivojlanish dinamikasida yuz bergan o‘zgarishlar qayta baholanib, olingan natijalar qiyosiy va matematik-statistik jihatdan tahlil qilingan.

Tajriba-sinov samaradorligini aniqlashda boshqaruv faoliyati, pedagogik faoliyat, bola rivojlanishining natijaviy dinamikasi, ota-onalar bilan hamkorlik va raqamli muhitdan maqsadli foydalanish asosiy baholash yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, monitoring natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish, pedagogik faoliyatni bolaning individual ehtiyojlariga mos rejalashtirish, ota-onalar bilan axborot almashinuvini tashkil etish hamda

ko‘rsatilgan pedagogik yordam natijalarini qayta kuzatish holatlari hisobga olingan. Baholashda bazaviy, o‘rta va yuqori darajalar ajratilib, ularning son va foiz ko‘rsatkichlari asosida tajriba hamda nazorat guruhlarining boshlang‘ich va yakuniy natijalari qiyoslangan. Bunda baholash mezonlari har ikki guruhga bir xil tartibda tatbiq etilib, pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlarni aniqlashga alohida e’tibor qaratilgan (2-jadval).

2-jadval

Ta’lim sifati menejmenti samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari

Baholash mezoni	Asosiy ko‘rsatkichlar	Ma’lumot manbai
Boshqaruv faoliyati	ta’lim sifati va pedagogik jarayonga oid ma’lumotlarni muntazam tahlil qilish; monitoring natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish; pedagoglarning metodik ehtiyojlarini aniqlash va metodik yordamni tashkil etish; pedagog–ota-ona–rahbar hamkorligini muvofiqlashtirish	ichki monitoring natijalari; rahbarning boshqaruv va metodik faoliyatiga oid qaydlar; raqamli boshqaruv moduli ma’lumotlari
Pedagogik faoliyat	bola rivojlanishini muntazam kuzatish; kuzatuv va raqamli monitoring natijalaridan rejalashtirishda foydalanish; individual ehtiyojga mos metod, topshiriq va o‘yinlarni tanlash; ko‘rsatilgan pedagogik yordam natijasini qayta kuzatish; natijaga ko‘ra pedagogik faoliyatga tuzatish kiritish	pedagogik kuzatuv; Individual rivojlanish kartasi; refleksiv qaydlar; raqamli platformadagi bolaning faoliyati va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari
